



59. 21 dan 100 gacha bo'lgan sonlar

o'nliklar va birliklar
natural sonlar
guruhlab sanash



**20 dan keyin keladigan ikki xonali sonlarning nomi
(yaxlit sonlardan tashqari) ikki so'zdan iboratdir.**

Masalan: 31 — o'ttiz bir.



1. Jadvaldan foydalanib, 42, 18, 56, 83 sonlarining "qo'shnilarri"ni aytинг. "Qo'shni" sonlar bu sonlardan nechtaga ortiq yoki nechtaga kam?

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
o'n	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	+10
yigirma	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	+10
o'ttiz	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	+10
qirq	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49	+10
ellik	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	+10
oltmis	60	61	62	63	64	65	66	67	68	69	+10
yetmish	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	+10
sakson	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	+10
to'qson	90	91	92	93	94	95	96	97	98	99	+10

2. Sonlarni uchta usul bilan yozing.

Qirq olti		4 o'nl. 6 birl.	46
Yigirma besh			
Ellik bir			

3. Tartib bilan sanang.

38 dan ...

45 gacha

17 dan ...


26 gacha

89 dan ...

96 gacha



Agar ko'p miqdordagi narsalarni sanash kerak bo'lsa (masalan, tangalar yoki konfetlarni), qulay bo'lishi uchun ularni bittalab emas, balki ikkitalab, uchtalab, beshtalab yoki birdaniga o'ntalab sanash kerak.



4. 1- topshiriqdagi jadvalga qarab sanang:

- a) 12 dan boshlab, ikkitalab;
- b) 20 dan boshlab, beshtalab;
- c) 30 dan boshlab, uchtalab;
- d) 10 dan 100 gacha o'ntalab.



5. Sonlarni to'g'ri tartibda aiting. Sanoq tartibini 10 dan boshlab, strelkalar yordamida ko'rsating.

60

20

90

70

30

80

40

10

50



6. Do'konda xaridor sotuvchidan 40 ta tugmacha berishini iltimos qildi. Sotuvchi sanashi qulay bo'lishi uchun tugmachalarni 5 talab sanadi. Sotuvchiga yordam bering.

